

Omonat saqlash shartnomasi tushunchasi va turlari

Ibragimova Munisa Xakim qizi

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti 2- bosqich talabasi.

Anottatsiya: Ushbu maqola fuqarolik huquqida mayjud bo'lgan Omonat saqlash shartnomasi haqida bo'lib, unga ko'ra omonat saqlash obyekti, subyekti, omonat saqlash shartnomasi shakli,muddatlari va bir qancha turlari keltirib o'tilgan, shuningdek, lombardda omonat saqlash, boyliklarni bankda saqlash, transport tashkilotlari yukxonasida omonat saqlash, transport tashkilotlarining kiyimxonalarida omonat saqlash va nizoli ashyolarni saqlash ya'ni sekvesrt turlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar:

Shartnomma, omonat, obyekt, subyekti, muddatlari, shakli, Lombard, transport tashkilotlari yukxonasida saqlash, kiyimxonalarda saqlash, ashyolarni mehmonxonada saqlash, sekvesrta omonat saqlash.

Omonat saqlash shartnomasi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 51-bobida belgilab qo'yilgan.

Omonat saqlash shartnomasi bo'yicha bir taraf omonat saqlovchi, ikkinchi tarafga ya'ni yuk topshiruvchiga bergen ashyoni saqlash va o'sha ashyoni butunligicha to'la xolida qaytarish majburiyatini oladi.

Omonat saqlashni amalga oshiradigan tashkilot bu tadbirkorlik yoki professional omonat saqlovchi hisoblanadi.

Ushbu shartnomma bo'yicha omonat saqlovchi yuk topshiruvchidan olgan ashyoni shartnomada nazarda tutilgan muddatda saqlashi va qabul qilishi nazarda tutilishi mumkin.

Omonat saqlash shartnomasining huquqiy belgilari mavjud bo'lib ular bir nechtani tashkil etadi.

- Omonat saqlash real shartnoma bo'lib hisoblanadi, chunki biror bir ashyni saqlash yuzasidan har ikki taraf o'rtasida huquq va burchlar ashyni topshirgan paytidan e'tiboran vujudga keladi. Agar omonat saqlash shartnomasi professional omonat saqlovchi yoki yuridik shaxslar o'rtasida tuzilsa bular, konsessual va ikki taraflama shartnomalar guruhiiga kiradi.
- Mazkur shartnoma bo'yicha qonunda boshqacha hol belgilanmagan bo'lса, tekinga tuziladigan shartnoma deb faraz qilinadi va u bir tomonlama shartnoma bo'lib hisoblanadi.
- Ushbu omonat saqlash shartnomasining asosiy maqsadi, topshirilgan ashyni saqlash va keyinchalik ham ashyni butun holida qaytarish hisoblanadi.

Omonat saqlashning obyekti fuqarolik muomilasidan chiqarilmagan, jismoniy va yuridik shaxslar uchun iste'mol maqsadlarga mo'ljallangan ko'char mol mulklar bo'lishi mumkin. Masalan, binoga yoki hududga joylashtirish mumkin bo'lган buyumlar omonat saqlashning predmeti bo'la oladi.

Ko'chmas mol mulklar, jumladan yer uchastkalari, bino inshootlar va boshqa obyektlar omonat saqlash predmeti bo'la olmaydi. Va yana shuningdek o'q otar quollar, qoradorilar, zaharli moddalar bu shartnoma predmeti bo'la olmaydi.

Omonat saqlash shartnomasining subyektlari; omonat saqlovchi, yuk topshiruvchi hisoblanadi.

Omonat saqlovchi bu- fuqarolar va yuridik shaxslar tomonidan topshiriladigan ashylarni saqlash va ularni to'la butun holida o'z egalariga qaytarib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z zimmalariga oluvchi yuridik shaxs hisoblanadi.

Modern education and development

Yuk topshiruvchi bu- o'zida mavjud bo'lган mol mulkni omonat saqlash uchun topshirgan yuridik va jismoniy shaxslardir. Shartnomada ishtirok etuvchi fuqarolar muomila layoqatiga ega bo'lishlari talab etiladi.

Omonat saqlash shartnomasining yozma ravishda tuzilgan hollarda ashyni saqlash uchun qabul qilinganligi omonat saqlovchi tomonidan yuk topshiruvchiga saqlash guvohnomasi, pattasi,til xatini va omonat saqlovchi imzolagan hujjatni berish orqali tasdiqlangan bo'lsa, shartnoma yozma shaklda tuzilgan hisoblanadi. Agar ashyo favqulotda holatlarda topshirilgan bo'lsa, shartnomani yozma shaklda tuzish talab etilmaydi.(FKning 877-moddasi).

Omonat saqlovchi topshirilgan ashyni shartnomada kelishilgan muddat davomida saqlashi shart. Agar muddat shartnomada keltirilmagan bo'lsa, ashyo yuk topshiruvchi talab qilib olgunigacha saqlanadi.

Hozirda omonat saqlashning yangi turlari mavjud bo'lib; Masalan, ashylarni transport tashkilotlarining yukxonasida saqlash, boyliklarni bankda saqlash, Tovar omborida omonat saqlash va hakozo.

Omonat saqlash shartnomasi 2 turga ya'ni oddiy omonat va maxsus omonat turlariga bo'linadi.

Oddiy omonat saqlash shartnomasi Fuqarolik kodeksi 875- 893 moddalarida bayon etilgan.

Maxsus omonat turlariga, lombardlarda, banklarda, tovar omborlarida, transportkorxonalarining yukxonalarida, kiyimxonalarda, mehmonxonalarda omonat saqlash kiradi.

Omonat saqlashning yana bir turi bu- ashyni egasizlantirib saqlash hisoblanadi.

Ashylarni saqlash uchun qabul qilingan ashylar boshqa yuk topshiruvchining shunga o'xshash ashylari bilan almashtirib yuborilishi mumkin. Masalan, og'irlik, o'lchov bilan belgilanadigan bir xildagi buyumlarni

Modern education and development

maxsus xonalarda saqlash misol bo'la oladi. Saqlash uchun topshirilgan bunday ashyolar egasiga qaytarilganda, o'zining buyumlarini emas balki jism va xil jihatdan o'xhash bo'lgan boshqa narsalarni oladi. Bunday saqlashga egasizlantirib saqlash deyiladi. (FKning 879-moddasi). Yuk topshiruvchiga o'zining ashyosi bo'yicha teng miqdorda, yoki taraflar kelishgan miqdorda shunga o'xhash va shunday sifatli ashyolar qaytarib beriladi.

Omonat saqlovchi saqlash uchun qabul qilingan ashyoni yoqolganligi, shikastlanganligi va kam chiqganligi uchun qonunda nazarda tutilgan hollarda javobgar bo'ladi. Bular;

- Yengib bo'lmas kuch tasiri oqibatida;
- Ashyoni saqlash uchun qabul qilgan vaqtida omonat saqlovchi bilmagan yoki bilishi shart bo'lмаган yashirin holatlar sababli;
- Saqlanayotgan ashyoning yoqolganligi, shikastlanganligi va kam chiqganligi yuk topshiruvchining qasddan qilganligi yoki qo'pol extiyotsizligi natijasida yuz bergenligini isbotlay olmasa javobgar bo'ladi.

Ashyo tekin saqlanganida uning yo'qolishi, kam chiqishi yoki shikastlanishi tufayli yuk topshiruvchiga yetkazilgan zarar:

- ashyolar yo'qolganligi va kam chiqganligi uchun - yo'qolgan yoki yetishmayotgan ashyolarning qiymati miqdorida;
- ashyolar shikastlanganligi uchun - ularning qiymati qancha summaga kamaygan bo'lsa, shuncha summa miqdorida qoplanadi.

Agar omonat saqlovchi javobgar bo'lgan holda shikast etishi natijasida ashyoning sifati undan dastlabki vazifasi bo'yicha foydalanish mumkin bo'lmaydigan darajada o'zgargan bo'lsa, yuk topshiruvchi undan voz kechishga va omonat saqlovchidan ushbu ashyoning qiymatini, shuningdek, agar qonunda yoki omonat saqlash shartnomasida nazarda tutilgan bo'lsa, boshqa zararni ham qoplashni talab qilishga haqli.

Modern education and development

Omonat saqlash shartnomasini bekor qilish bo'yicha alohida qoidalalar nazarda tutilmagan, ammo umumiylar qoidalardan kelib chiqib quyidagilarni keltirishimiz mumkin.

- Shartnoma taraflarining kelishuvi bilan;
- Shartnomada keltirilgan muddat tugashi bilan;
- Shartnomada keltirilgan shartlarni bajarishdan bosh tortish oqibatida;
- Qonu yoki shartnomada nazarda tutilgan boshqa hollarda.

Omonat saqlash shartnomasini turlariga to'xtaladigan bo'lsak;

Omonat saqlashning alohida turlaridan biri bu- Lombardda omonat saqlash. (FK.893-modda).

Lombard shaxsiy istemolga mo'ljallangan ko'char mol-mulkni zakalat shaklida garovga qabul qilib, fuqarolarga qisqa muddatli ya'ni 3 oydan oshmagan muddatga kreditlar beradi hamda fuqarolardan shaxsiy iste'molga mo'ljallangan ko'char ashyolarni saqlashga qabul qiladi. Lombardga saqlash uchun topshiriladigan ashyo taraflarning kelishuviga binoan saqlash uchun qabul qilish vaqtida va joyida odatda savdoda aynan shu turdag'i va sifatdagi ashyoga belgilanadigan narxlarga ko'ra baholanishi kerak. Lombardda saqlash uchun qabul qilingan ashyolarni yuqoridagi qoidalarga muvofiq chiqarilgan narxning to'liq summasida o'z hisobidan yuk topshiruvchi foydasiga sug'urtalashi shart. Ashyodan tushgan puldan saqlash haqi va lombardga tegishli bo'lган boshqa to'lovlari qoplanishi kerak. Qolgan pul lombard tomonidan saqlov pattasining egasiga u taqdim etgan paytida qaytarib beriladi.

Boyliklarni bankda saqlash, ya'ni qimmatli qog'ozlarni, qimmatbaho metallar va toshlarni va boshqa boyliklarni va shuningdek hujjatlarni saqlash uchun qabul qilishi mumkin.Bankda boyliklarni saqlash bank tomonidan boylik topshiruvchiga nomi yozilgan saqlov hujjatini bergandan so'ng rasmiylashtiriladi.Fuqarolik qonunchiligi bo'yicha boyliklarni yakka tartibdagi

po'lat sandiqdan foydalangan holda saqlash shartnomasi bank tomonidan boyliklarni saqlash uchun qabul qilish harakatlarini amalga oshirish va boylik topshiruvchiga po'lat sandiq kalitini, boylik topshiruvchi ko'rsatadigan varaqcha yoki shu huquqqa ega bo'lган hujjatlar berish yo'li bilan tuzish mumkin. Boylik topshiruvchi istagan vaqtida boyliklarini olishi, ularni qayta qo'yishi va saqlanayotgan hujjatlar bilan ishlashi mumkin. Boylik topshiruvchi shaxs boyliklarini bir qismini olgan taqdirda ham, qolgan bir qismini but saqlash uchun javobgar bo'ladi. (FK 896-modda).

Ashyolarni transport tashkilotining yukxonalarida saqlash transport tashkilotining ixtiyoridagi yo'lovchilar, yukxonalar va fuqarolardan ularda yo'l hujjatlari borligi yoki yoqligidan qatiy nazar ashylarni qabul qilishi shart. Bu shartnomasi ommaviy hisoblanadi. Ashyoniyukxonaga qabul qilganligini tasdiqlash uchun yuk topshiruvchiga patta yoki nomerli jeton beriladi, agar ular yo'qolgan taqdirda o'sh ashyo o'ziga tegishli ekanligini isbotlab bergen taqdirdagina beriladi.

Agar yukxonaga topshirilgan ashyo yo'qolgan yoki kam chiqgan taqdirda yuk topshiruvchi ko'rigan zararni o'rnini qoplash to'grisida talab qo'yilgan paytdan boshlab bir sutka mobaynida yuk topshiruvchiga zarar to'lanadi. Ashyo yukxonaga topshirilganda kelishilgan muddat mobaynida yukni talab qilib olmasa ashyo yukxonada 30 kun saqlanadi. Bu muddat tugagach talab qilib olinmagan ashyo sotiladi va FK 895- modda bo'yicha taqsimlanishi mumkin.

Ashyolarni kiyimxonalarda saqlashda u haq evaziga kiyimlarni saqlash yoki boshqa usullar bilan kelishilmagan bo'lsa, bunday holda ashyo saqlash bepul hisoblanadi. Tashkilot kiyimxonalarida saqlash uchun asosan bosh kiyimlar yoki ustki kiyimlar va shunga o'xshash ashylar topshiriladi. Kiyimlarni qabul qilib olganligini tasdiqlash uchun yuk topshiruvchiga saqlovchi nomerli jeton yoki boshqa belgi berishi kerak. Agar yuk topshiruvchi jetonni yo'qotib qo'ygansa lekin u kiyimlarini kiyimxonaga topshirganligiga shubha bo'lmasa, uni isbotlash

Modern education and development

shart bo'lmasa omonat saqlovchi yuk topshiruvchiga kiyimlarini qaytarishga haqli.(FK 898-modda).

Ashyoni mehmonxonada saqlashda mehmonxonada yashayotgan shaxs tomonidan olib kirilgan ashylarning yo'qolganligi, kam chiqqanligi yoki shikastlanganligi uchun omonat saqlovchi sifatida alohida kelishuv bo'lman taqdirda ham javobgar bo'ladi, yoki ashyo yengib bo'lmaydigan kuch, ashyoning o'z xossalari oqibatida yoki mehmonxonada yashovchining o'zi, uning hamrohlari yoki uning yoniga kelgan shaxslar aybi bilan yo'qolgan, kam chiqqan yoki shikastlangan hollar bo'lganda javobgar bo'lmaydi.

Pul, valyuta qimmatliklari, qimmatli qog'ozlar va boshqa qimmatli ashylarni saqlash alohida omonat saqlash shartnomasi bo'yicha qabul qilingan bo'lsagina, mehmonxona unga javobgar bo'ladi.

Ushbu moddaning qoidalari motellar, dam olish uylari, sanatoriylar, yotoqxonalar, hammomlarda, shuningdek, tashkilotga keladigan fuqarolarning ashylarini saqlash uchun maxsus ajratilgan joylarga ega bo'lgan boshqa tashkilotlarda ham ashylarni saqlashga nisbatan qo'llanadi. (FK 899-modda).

Omonat saqlashning turlaridan yana biri bu- sekvestr to'g'risidagi shartnoma hisoblanadi. Sekvestr to'g'risidagi shartnoma bo'yicha ashyyoga egalik qilish xususida oralarida nizo chiqqan ikki yoki bir necha shaxs nizoli ashyonni uchinchi shaxsga beradilar. Uchinchi shaxs nizo hal bo'lgach, ashyon sud qarori bilan yoki nizolashayotgan hamma shaxslarning kelishuviga muvofiq kimga tegishli bo'lsa, o'sha shaxsga qaytarib berish majburiyatini oladi (shartnoma sekvestri). Nizoli ashyo sudning qaroriga muvofiq sekvestr tartibida saqlash uchun topshirilishi kerak (sud sekvestri). Sud tomonidan tayinlangan shaxs ham, bahslashayotgan taraflarning o'zaro kelishuviga muvofiq belgilanadigan shaxs ham sud sekvestri bo'yicha omonat saqlovchi bo'lishi mumkin. Har ikkala holda ham, qonun hujjatlarida boshqacha tartib keltirilnagan bo'lsa, omonat

Modern education and development

saqlovchining roziligi talab qilinadi. (900-modda). Sekvestr shartnomasining ikki turi mavjud:

1. Shartnoma sekvestri;
2. Sud sekvestri.

Sekvestr tartibida saqlashga ko'char va ko'chmas mulklar topshirilishi mumkin.

Omonat saqlash shartnomasining tuzilish tartibi:

Avvalo shartnoma rekvizitlari kiritiladi keyin shartnoma tuzilgan vaqt, shartnoma raqami, shartnoma tuzilgan joy kiritilishi kerak.

Undan keyin Omonat saqlovchi; omonat saqlovchi tashkilotning to'liq nomi va tashkiliy huquqiy shakli, tashkilot rahbarining lavozimi, (masalan, direktor, rais yoki bosharuvchi bo'lishi mumkin), tashkilotning manzili, hisob kitob raqami, STIR, MFO OKED raqami kiritiladi.

Keyingisi yuk topshiruvchi; yuk topshiruvchi tashkilotning to'liq nomi, tashkilot rahbarining lavozimi, manzili, hisob raqami, STIR, MFO OKED raqami kiritib o'tiladi. Undan keyin shartnoma shartlari kiritiladi;

Omonat saqlash uchun yuk topshirilayotgan kun;

Ashyo nomi (topshiriladigan ashyoning aniq nomi, rusumi, tavsifi va boshqa);

Ashyo miqdori;

Ashyoni saqlashning oxirgi kuni;

Ashyoni saqlashning shartlari;

Ashyoni saqlaganlik uchun omonat saqlovchiga har oyda to'laydigan haq miqdori va o'sha haqni to'laydigni kun belgilanishi kerak;

Omonat saqlovchi va yuk topshiruvchining boshqa majburiyat va huquqlari;

Shartnomaning amal qilish muddati va tugaydigan sanasi, bularning barchasi omonat saqlash shartnomasida kiritilishi kerak. Va shundan keyin shartnama tuzilgan deb hisoblanadi.

Xulosa:

Omonat- bir insonning ikkinchi bir insonga vaqtinchalika ishonib saqlash uchun topshirgan omonat narsasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

<http://lex.uz//docs/-180552> O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (ikkinchi qism)

- Fuqarolik huquqi. II qism. Abdusalomov.
- Omonat nima. O‘zbekistonda qanday omonat turlari mavjud – Spot <https://www.spot.uz/oz/2021/06/30/deposit/>
- Lombardlar va ularning faoliyati haqida bilasizmi? | Depozit.uz <https://depozit.uz/news/lombardlar-va-ularning-faoliyati-haqida-bilasizmi>
- omonat saqlash shartnomasi: <https://yurxizmat.uz/oz/document/1077>